



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2023  
2-сон



<b>Шахноза Махмудовна Латипова</b> Лизинг хизматларининг атроф-муҳитни муҳофаза қилишда қўлланилиши	74
<b>Умид Холбоевич Холбоев</b> Хизмат кўрсатиш соҳасида хизматлар самарадорлиги ва сифатини оширишга рақобатнинг таъсирини баҳолаш	79
<b>Нилуфар Зиябаевна Юлдашова</b> Агросервисни ривожлантиришда хорижий мамлакатлар тажрибаси	83
<b>Нигина Маруповна Усманова</b> Китоб савдосини самарали ташкил қилишдаги муаммолар ва уларнинг ечимлари бўйича айрим тавсиялар	87
<b>Фарход Анварович Сафаров</b> Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятини такомиллаштиришда инновацион жараёнларнинг аҳамияти	92
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Алишер Абдуганиевич Эшгаев</b> Халқаро туризм бозорининг ривожланиш тенденциялари ва унда Ўзбекистоннинг иштироки	97
<b>Shovqiddin Erkin o'g'li Abdurasulov</b> Turizm rivojlanishi sharoitida “ekologik turizm” tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari	102
<b>Ollonazar Norbek o'g'li Allonazarov</b> Mintaqada mehmonxona xizmatlari faoliyati ko'rsatkichlari tahlili	105
<b>Адхам Итолмасович Рахматов</b> Туризм соҳасида юқори малакали кадрлар билан таъминланганлик даражасига таъсир қилувчи омиллар ва уларни аниқлаш йўллари	109
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Юлдуз Пирназаровна Урунбаева</b> Кичик тадбиркорлик ва аҳоли турмуш даражаси: ўзаро боғлиқлиги	115
<b>Мехрангиз Олимовна Мамаюнусова</b> Мамлакатимиз худудларида оила хўжаликларининг таркибий тузилиши ва ўзгариши билан боғлиқ масалалари	119
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Sanjarbek Komiljon o'g'li Boyjigitov</b> Marketing xizmati samaradorligini baholashning nazariy asoslari va amaliy ifodasi	125
<b>Zulfiya Musayevna Usmanova</b> Kadrlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish muammolari	129
<b>Кахрамон Сайдуллаевич Махмудов</b> Хизматлар сифатини баҳолаш ва назорат қилишнинг ўзига хос жиҳатлари	132
<b>Shokhista Bahridin kizi Turdieva</b> Specific features of the conceptual framework of social marketing	138
<b>Diyor Haqberdiyevich Xolmamatov</b> Ulgurji savdoda sotuvdan keyingi servisni rivojlantirishning marketing strategiyasi	142
<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Азиза Махомадризовна Каримова</b> Оценка современного состояния рынка и условия кредитования субъектов туристических услуг Республики Узбекистан	148

- mamlakatimizda zamonaviy ekologik turizm xizmatlarining rivojlanishida xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganishga va tajribalar ortirishga e'tibordan qolmasligi zarur deb hisoblaymiz;

- ekologik turizmning rivojlanishida huquqiy-me'yoriy hujjatlarni shakllantirishda albatta xalqaro huquqiy kelishuvlarni hisobga olish, bunda turizm xavfsizligiga ham ko'proq e'tibor berilishi lozim deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tuxliyev I.S., Abduhamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 42-43 betlar.
2. Rahimov Z.O., Ibadullayev N.E., Haitboyev R. Turopereyting. Darslik. – Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 12-34 betlar.
3. Rahimov Z.O. Turizm tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 2019, 41-64 betlar.
4. Haitboyev R. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 14-19 betlar.
5. Norchaev A.N., Rabbimov E.T. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010 y. 7-12 betlar.

<p><b>Ш.Абдурасулов</b></p> <p><b>Социально-экономическая сущность и характеристика понятия «экологический туризм» в условиях развития туризма</b></p> <p><b>Аннотация:</b> в данной статье рассмотрены социально-экономическая сущность и особенности понятия «Экологический туризм» в развитии туристической сферы Узбекистана. Также была изучена сущность определения понятия «Экологический туризм» в различной литературе, и в результате исследования определение понятия «Экологический туризм» было дано автором как научная новизна.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> туризм, экологический туризм, экотуризм, зеленый туризм, мягкий туризм, природа, экосистема, регион, природная территория, природные ресурсы, экология, охрана, туристский ресурс, местное население.</p>	<p><b>Sh.Abdurasulov</b></p> <p><b>Socio-economic essence and characteristics of the concept of “ecological tourism” in the context of tourism development</b></p> <p><b>Abstract:</b> this article discusses the socio-economic essence and features of the concept of “Ecological tourism” in the development of the tourism sector in Uzbekistan. The essence of the definition of the concept of “Ecological tourism” in various literature was also studied, and as a result of the study, the definition of the concept of “Ecological tourism” was given by the author as a scientific novelty.</p> <p><b>Keywords:</b> tourism, ecological tourism, ecotourism, green tourism, soft tourism, nature, ecosystem, region, natural area, natural resources, ecology, protection, tourist resource, local population.</p>
--	---

**Ollonazar Norbek o'g'li Allonazarov** – Urganch Davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**MINTAQADA MEHMONXONA XIZMATLARI FAOLIYATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Xorazm viloyatida mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining rivojlanish tendensiyalarini va mehmonxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari tahlili ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** mehmonxona, turizm, sayyoh, mehmonxona industriyasi, mehmonxona xizmatlari, joylashtirish vositalari, hudud.

**Kirish.** Bugungi kunda turizm sohasi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Shuningdek, turizm mamlakat eksport salohiyatini oshirib, iqtisodiyotda yangi ishchi o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. 2022-yil natijalariga ko'ra “turizm ko'rsatilgan xizmatlar dunyo YAIMni 6,4 %ini tashkil qilib, 1,3 trln. AQSH dollariga yetgan, shuningdek sohada band bo'lganlar soni 379 mln. nafarni tashkil qilib, 10 ish o'rnidan bittasi turizmga tegishli”[1] bo'lgan. Mustaqillik davrlarida O'zbekiston o'z turizm industriyasini zamon talablariga mos ravishda qaytadan tashkil qildi. Turizm sohasida amalga oshirilgan tashkiliy va tarkibiy o'zgarishlar natijasida, infratuzilmalar rivojlanib, mamlakat hududlaridagi

madaniy va tarixiy diqqatga sazovor joylarni saqlash va tiklash mexanizmi ta'minlandi. Bu o'z navbatida mamlakatimizga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar oqimini ko'paytirmoqda.

2022-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 5,2 mln.nafarni tashkil qilib, 2021-yilga nisbatan deyarli 3 barobarga oshgan[2]. Shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatimizda ichki turizmning yuqori sur'atlarda rivojlanishi mehmonxonalar sonini ko'payishiga olib kelmoqda. Mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mehmonxona industriyasi yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda. Xorijiy turistlarning qolish muddatlarining ko'payishi natijasida mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining yuklamasi ham ortmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** U.R.Matyakubov [3] tomonidan viloyatda turizm va mehmonxona biznesi samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari, hududda ekologik, qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha tadqiqotlarini olib borgan. B.Ollanazarov [4] tomonidan viloyat turizm va mehmonxona industriyasida investitsion faollikni oshirish strategiyalari hamda ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Tadqiqotchi D.Bekchanov [5] tomonidan Xorazm viloyati turistik destinatsiyasi raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirgan. Turizm destinatsiya va undagi korxonalar daromadlarini oshirish, hamda ularda tavakkalchilikni kamaytirish hisobiga turizm sohasini investorlar oldida jozibadorligini oshirish bo'yicha takliflarini bergan.

Shuningdek, iqtisodchi olimlar I.Abdullayev [6] tomonidan hudud iqtisodiyotida turizm va mehmonxona industriyasining tutgan o'rni va ahamiyati, viloyatning turistik salohiyati, reklama va ijtimoiy tarmoqlar orqali vohada turistik mahsulotlarni realizatsiya qilish masalalari tadqiq qilingan. Tadqiqotchilar A.Palvaniyazov [7] tomonidan viloyatning dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirish imkoniyatlari hamda Xorazm vohasining tarixiy-madaniy yodgorliklarini o'z ishlarida yoritib berganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda iqtisodiy hodisalar va voqealar jarayonlarini o'rganishning- kuzatish, umumlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Tadqiqot jarayonida Butunjahon sayohat va turizm kengashi ma'lumotlari(WTTC), O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi ma'lumotlari va Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi ma'lumotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mamlakatimizda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilindi. 2014-yilda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 613 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ularning soni 1085 ni tashkil qilgan. Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari, xususan, mamlakatimizning asosiy turistik shaharlari hisoblangan Buxoro, Samarqand, Xorazm viloyatlari va Toshkent shaharlarida o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan. Jumladan, 2014-yilda Buxoro viloyatida 85ta, Samarqand viloyatida 97ta, Xorazm viloyatida 34ta, Toshkent shahrida 114 tani mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari mavjud bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib, mos ravishda ularni soni 180tani, 116tani, 75tani hamda 307tani tashkil qilgan

So'nggi yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish, viloyatga xorijiy va mahalliy sayyohlarni yanada ko'proq jalb qilish, turizm sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va ko'lamini yanada oshirish, soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, sayyohlar xavfsizligini ta'minlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmogda. 2018 va 2019-yillarda mamlakatimizning barcha hududlarida, jumladan, asosiy turistik shaharlarda mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga tashrif buyurgan sayyohlar soni yuqori bo'lgan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida O'zbekiston Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqarolarning kirishi tartibini optimallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-3836-son Qarori bilan 2018-yil 15-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasidan tranzit orqali o'tadigan fuqarolar uchun vizasiz kirish, vaqtincha bo'lish tartibi joriy qilinganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-vanvardagi 5611-son Farmoni bilan 2019-yil 1-fevraldan boshlab, 45 ta davlat uchun 30 kun muddatga vizasiz rejim e'lon qilinganligi bilan izohlash mumkin.

Mamlakatimizning eng asosiy turistik destinatsiyalari hisoblangan Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahridagi mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalariga tashrif buyuruvchilar soni 2018-yilda mos ravishda 231,2 ming nafar, 190,2 ming nafar, 118,9 ming nafar, 1001,5 ming nafarni, 2019-yilda mos ravishda 268,4 ming nafar, 220,6 ming nafar, 154,6 ming nafarni va 990,5 ming nafarni tashkil qilgan.

Xorazm viloyatida 2017-yilda joylashtirish vositalari soni jami 56 tani, 2018-yilda 69 tani, 2019-yilda 152 ta, 2020-yilda 162 ta, 2021-yilda 178 tani va 2022-yilda 204 taga yetdi. Xorazm viloyatida jami mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalaridagi xonalar soni 2636 tani, o‘rinlar soni 5693 tani tashkil qiladi. Viloyatda mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni 2022-yilda, 2017-yilga nisbatan 3,6 barobarga, 2018-yilga nisbatan 2,9 barobarga, 2019-yilga nisbatan 1,3 barobar, 2020-yilga nisbatan 1,2 barobar o‘shishgan (1-jadval).

**1-jadval**

**Xorazm viloyatida mehmonxonalar va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari sonining 2014-2022-yillardagi o‘zgarish dinamikasi[8]**

<b>Tumanlar</b>	<b>2016</b>	<b>2017</b>	<b>2018</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>
Urganch shahar	12	15	17	28	28	35	44
Xiva shahar	32	35	45	116	124	131	147
Hazorasp tumani	4	4	4	4	4	1	1
Urganch tumani		1	2	2	3	3	3
Gurlan tumani	1	1	1	1	1	1	1
Xonqa tumani	-	-	-	1	1	1	1
Xiva tumani	-	-	-		1	1	1
Tuproqqal’a tumani	-	-	-			4	4
Bog‘ot tumani	-	-	-			1	1
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>36</b>	<b>56</b>	<b>69</b>	<b>152</b>	<b>162</b>	<b>178</b>	<b>204</b>

Xorazm viloyatiga tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy sayyohlar soni yildan yilda ko‘payib bormoqda. Jumladan, 2022-yil davomida viloyatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar 137,5 ming nafarni va mahalliy sayyohlar soni 1 mln 488 ming nafarni tashkil qilib, turizm xizmatlari eksporti esa 27,7 mln AQSH dollarni tashkil qilgan. Bu o‘z navbatida, yangidan yangi mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari xizmatlariga bo‘lgan talabni oshirmoqda.

Tadqiqot jarayonida Xorazm viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan mehmonxonalarning toifalari bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi. Unga ko‘ra, 2021-yilda viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan 72 ta mehmonxonadan, 4 ta mehmonxona 1 yulduzli, 1 ta mehmonxona 2 yulduzli, 8 ta mehmonxona 3 yulduzli, 1 ta mehmonxona 4 yulduzli va 58 ta mehmonxona toifaga bo‘lmagan [9].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4095-sonli Qarori asosida 2019-2021-yillarda jami 1894 o‘rinli 98 ta mehmonxona qurilgan. Shuningdek, mazkur qarorning samarali bajarilishi natijasida viloyatda mehmonxonalarni qurish bo‘yicha istiqbolli investitsiya loyihalari amalga oshirilgan. 2019-2021 yillarda Xorazm viloyatining Urganch shahrida tashabbuskorlar va bank liniyasi mablag‘laridan 213 850 mln. so‘m va 69980 ming AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar hisobidan 37 ta mehmonxona qurilgan. Shuningdek, Bog‘ot tumanida loyiha qiymati 15 mlrd. so‘mlik, Gurlan tumanida loyiha qiymati 1400 mln. so‘mlik 1 tadan mehmonxona, Urganch tumanida loyiha qiymati 23500 mln. so‘mlik 3 ta mehmonxona, Hazorasp tumanida loyiha qiymati 2000 mln. so‘mlik bo‘lgan 1 ta mehmonxona, Xiva tumanida loyiha qiymati 2500 mln.so‘m bo‘lgan 1 ta mehmonxona hamda Yangiariq tumanida loyiha qiymati 700 mln.so‘m bo‘lgan 4 mehmonxona qurilgan. Ushbu mehmonxonalarni qurilishi natijasida jami 1161 ta yangi ishchi o‘rinlari yaratilgan.

Xorazm viloyatining mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalarida tashrif buyuruvchilarning tur-kunlari 2018-yilda 191,4 ming-kishini, 2019-yilda 236,7 ming kishini, 2020 yilda 55,0 ming-kishini, 2021-yilda 119,4 ming kishini tashkil qilgan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida viloyatdagi mavjud mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalaridan

foydalanish koeffitsiyentlari ham tahlil qilindi. Unga ko‘ra joylar fondidan foydalanish koeffitsiyentlari 2018 va 2019-yillarda mos ravishda 21,2% va 21,0%ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020 va 2021-yillarda mos ravishda 4,3% va 9,6%ni tashkil qilgan. Bundan shuni ko‘rish mumkinki, 2020-yildagi koronavirus pandemiyasi ta‘sirini natijasida Xorazm viloyatida mehmonxonalar joylari fondidan foydalanish koeffitsiyenti past bo‘lgan.

Mamlakatimizda 2020-yilda koronavirus pandemiyasining turizm sohasiga bo‘lgan ta‘sirini yumshatish uchun davlat tomonidan qabul qilinayotgan Farmon va qarorlar hamda yaratilayotgan shart-sharoitlar Xorazm viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalarini chuqur inqiroz holatidan saqlab qoldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-iyundagi “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta‘sirini yumshatish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6002-sonli Farmoniga asosan Davlat tomonidan qo‘shimcha ko‘mak ko‘rsatish maqsadida, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan:

- joylashtirish vositalarini qurish uchun turizm sohasi subyektlariga avval berilgan kreditlar bo‘yicha 2020-yil 1-iyundan 2022-yil 1-yanvargacha bo‘lgan davrda foiz xarajatlarining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 10 foizlik punktdan ortiq bo‘lmagan qismini subsidiyalashni belgilab berilgan.

- mazkur Farmonga asosan joylashtirish vositalari va turoperatorlarning pandemiya vaqtida xodimlarini saqlab turish uchun ajratilgan bir martalik ssuda ajratish belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Farmonga asosan 2021-yilda jami Xorazm viloyatida 7 ta joylashtirish vositalariga mehmonxona xizmatlarini qo‘shimcha subsidiyalash bo‘yicha 1.2 mlrd. so‘m miqdoridagi subsidiya mablag‘lari ajratilgan. Bundan tashqari, ushbu Farmonga asosan jami 25 ta joylashtirish vositalariga ajratilgan 36,4 mlrd.so‘m miqdoridagi avval berilgan kreditlarning 2020-yil 1-iyundan 2022-yil 1-yanvargacha bo‘lgan davrda foiz xarajatlarini Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 10 foizlik punktdan ortiq bo‘lmagan qismini, ya‘ni jami 2,4 mlrd. so‘m subsidiyalash belgilab berilgan.

Shuningdek, 2020-yil 1-oktabrdan boshlab, viloyatdagi mehmonxona va joylashtirish vositalarini qurish uchun tijorat banklari tomonidan avval berilgan kreditlar bo‘yicha asosiy qarz to‘lovini 18 oydan 24 oygacha uzaytirish bo‘yicha ham imtiyoz berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5969-sonli Farmoniga asosan, 2020-yil davomida Xorazm viloyatidagi barcha mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari va turoperatorlik tashkilotlariga 56 mlrd. 253 mln. so‘mlik soliq imtiyozlari berilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatida mehmonxona va joylashtirish vositalari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish muhim zaruriyat hisoblanadi. Bizning fikrimizcha mehmonxona xizmatlari faoliyatini iqtisodiy ko‘rsatkichlarini to‘liq tahlil qilish statistik ma‘lumotlar to‘plash uslubiyatini takomillashtirish zarur bo‘ladi. Chunki zarur iqtisodiy statistik ko‘rsatkichlar asosida mehmonxona xizmatlarini yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini va ta‘sirini aniqlash imkoniyati bo‘ladi. Mintaqada mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari xizmatlari faoliyati ko‘rsatkichlari tahlili, tarmoqqa mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida mintaqada mehmonxona xizmatlari faoliyati takomillashtirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Xorazm viloyatiga turistik mavsumda mahalliy va xorijiy turistlarining tashrifi ko‘payotganligi sabab, mehmonxona industriyasiga investitsiyalar jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish;
- Hududning turizm salohiyatining o‘ziga xos tabiiy va geografik jihatlari va infratuzilma salohiyatini hisobga olgan holda xostel va motellarni qurishni rag‘batlantirish;
- Xorazm viloyatida mehmonxona korxonalarining biznes strategiyalariga yangi innovatsion texnologiyalarni tadbiiq qilish;
- Mamlakatimizning 2030-yilga yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasiga muvofiq, viloyatda

“yashil” mehmonxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yishni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- Xorazm viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan mehmonxonalarda samarali marketing strategiyalarini amalga oshirish, xususan, brend bo‘lgan mehmonxonalar zanjirini ko‘paytirish, mehmonxona xizmatlarini dunyo bozorlariga chiqishida PR kompaniyalardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

Yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalarni amalga oshirilishi, Xoram viloyatida mehmonxona industriyasini barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Travel & Tourism Economic Impact | World Travel & Tourism Council (WTTC)
2. <https://uzbektourism.uz/research/statistics>
3. Matyakubov U.R. “Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish istiqbollari va asosiy yo‘nalishlari”. Nomzodlik dissertatsiyasi. SamISI, 2011. 156 b.
4. Ollanazarov B.D. Turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni oshirish strategiyasi va ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. SamISI, 2019. 58 b.
5. Bekchanov D.Y. Turistik destinatsiyada investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirishda innovatsion yondashuvlar. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2018-yil.
6. I.S.Abdullayev, S.F.Allayarov. The role of tourism industry in the economy of regions // “2017-2021 yillarda mintaqalarda turizm salohiyatini kompleks rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi respublika ilmiy anjumani materiallari. Urganch -2018 yil 24 noyabr. 3 b.
7. Palvaniyozov A., Ko‘klanov Sh. Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining imkoniyatlari // “2017-2021-yillarda mintaqalarda turizm salohiyatini kompleks rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi respublika ilmiy anjumani materiallari. Urganch -2018-yil 24-noyabr. 88 b.0020
8. Xorazm viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi ma’lumotlari.
9. O‘zbekistonda turizm. 2018-2021 yillar. Statistik to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. www.stat.uz

<p><b>О.Аллоназаров</b>  <b>Анализ деятельности гостиничных услуг в регионе</b></p> <p><b>Аннотация:</b> в данной статье раскрываются тенденции развития гостиниц и подобных средств размещения в Хорезмской области и проводится анализ основных показателей гостиничной деятельности.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> гостиница, туризм, гостиничное хозяйство, гостиничные услуги, средства размещения, регион.</p>	<p><b>O. Allonazarov</b>  <b>Analysis of the activities of hotel services in the region</b></p> <p><b>Abstract:</b> this article reveals the development trends of hotels and similar accommodation facilities in the Khorezm region and analyzes the main indicators of hotel activities.</p> <p><b>Keywords:</b> hotel, tourism, tourist, hotel industry, hotel services, accommodation facilities, region.</p>
--	---

Адхам Итолмасович Рахматов – СамИСИ мустақил тадқиқотчиси

**ТУРИЗМ СОҲАСИДА ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ КАДРЛАР БИЛАН  
 ТАЪМИНЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ВА  
 УЛАРНИ АНИҚЛАШ ЙЎЛЛАРИ**

<p><b>Аннотация:</b> Ушбу мақолада муаллиф туризм соҳасида юқори малакали кадрлар билан таъминланганлик даражасига таъсир қилувчи омиллар ва уларни аниқлаш йўлларини таҳлил қилган ҳамда, тегишли бошқарув қарорларини қабул қилишдаги аҳамиятли жиҳатларини кўрсатиб берган.</p> <p><b>Калит сўзлар:</b> иқтисодиёт, туризм, кадр, мегаполисга, халқаро туризм, бизнес саноат, тадбиркорлик, таълим, маданият, омил, индекс, бандлик, хориж, турист.</p>
--

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

2.06.2023 йилда теришга берилди. 21.06.2023 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0045А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023